



«TASDIQLAYMAN»
O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi huzuridagi
Fuqaro aviatsiyasi agentligi v.b. direktori
T.E. Uljayev
2020 yil « 01 » 06

DAVLAT XIZMATI REGLAMENTI
(O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi
Fuqaro aviatsiyasi agentligi)

1. Xizmat tavsifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish

1.2. Xizmat natijasi

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 1 martdagi 58-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizomi"da (O'zR AQ-30) o'rnatilgan.

1.3. Xizmatni ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish manzili

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi ("O'zaviatsiya" agentligi), Havo kemalarining uchishga yaroqliligi bo'limi (HKUYaB), "O'zaviatsiya" agentlikning rasmiy veb-sayti www.uzcaa.uz

1.4. Huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 37-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 1 martdagi 58-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizomi" (O'zR AQ-30).

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini olish uchun ariza bilam murojat qilgan fuqaro havo kemasining ekspluatanti (egasi/mulkdori) bo'lishi mumkin.

1.6. So'rov berish muddati

Ornatilmagan

1.7. So'rov berish muddatlariga rioya etmaslik oqibatlari ko'rsatilsin

Taalluqli emas

1.8. Ijro muddati

“Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”ga muvofiq arizani ko‘rib chiqish muddati 15 (o‘n besh) kalendar kun ichida o‘rnatilgan.

1.9. Ariza qabul qilinganligini tasdiqlash muddati

Taalluqli emas

2. Xizmatdan foydalanuvchilariga ma‘lumotlarni taqdim etish

2.1. Ma‘lumotlarning tarkibi va hajmi

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida ma‘lumotlarni murojaat qilgan har qanday shaxsga taqdim etish, shu jumladan “O‘zaviatsiya” agentlikning rasmiy veb-saytidan www.uzcaa.uz zarur bo‘lgan hujjatlarni yuklab olish imkoniyati bilan.

2.2. Ma‘lumotlarni keng taqdim etish

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida ma‘lumotlarni taqdim etishi “O‘zaviatsiya” agentlikning rasmiy veb-saytidan www.uzcaa.uz amalga oshiriladi.

2.3. So‘rovga asosan beriladigan ma‘lumotlar

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida ma‘lumotlarni og‘zaki ravishda 9-00 dan 18-00 gacha taqdim etishi: 78-120-00-62 yoki 78-120-00-63 sonli telefon raqamlari orqali;
Yozma ravishdagi so‘rovnomalarni kecha-kunduz 71-254-14-82 sonli faks raqami orqali qabul qilish, yozma ravishdagi so‘rovnomalarni 9-00 dan 18-00 gacha “O‘zaviatsiya” agentlikning devonxonasi orqali qabul qilish va berish;
Yozma ravishdagi so‘rovnomalarni kecha-kunduz qabul qilish: caa@uzcaa.uz yoki technique@uzcaa.uz elektron pochta orqali.

2.4. Xizmatni ko‘rsatuvchining manzilida ma‘lumotlarni taqdim etish

“O‘zaviatsiya” agentlikning manzili: 100015, Toshkent shahri, Nukus ko‘chasi 73-b.
Mo‘ljal – Mirobod bozori ro‘parasida.

2.5. Ilatiladigan xujjatlar blankalari (shakllari)

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik sertifikatini va arizaning blankalari “Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”da belgilangan.

3. Xizmat ko‘rsatish

3.1. Ish vaqti

“O‘zaviatsiya” agentlikning ish vaqti - har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha, shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari.

3.2. Kutish shartlari

Taalluqli emas

4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

4.1. Zarur bo'lgan xujjatlar

a) Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik sertifikatini olish uchun Ariza;
b) Sertifikatning turiga qo'ra "Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizom"ning V-bo'limidagi 1, 2, 3 paragraflarida belgilangan zarur bo'lgan xujjatlarni arizaga ilova qilish.

4.2. Pullik xizmatlar

Xizmat bepul

4.3. Davlat xizmati ko'rsatish bosqichlari

"Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizomi"da quyidagi bosqichlar belgilangan:

- arizani qabul qilish va uni ro'yxatdan o'tkazish;
- arizani dastlabgi baholash va ariza rad etishi to'g'risida arizachini yozma ravishda xabardor qilish;
- asoslovchi xujjatlarni ekrpertiza qilish va aniqlangan kamchiliklar to'g'risida arizachini yozma ravishda xabardor qilish;
- arizachidan aniqlangan kamchiliklarning bartaraf qilganligi to'g'risida xujjatlarni qabul qilish;
- havo kemasining uchishga yaroqlilik holatini tekshirishni o'tkazish;
- fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berishni yoki berishni rad etish.

4.4. Davlat xizmati ko'rsatishning ichki idoraviy jarayonlari

"O'zaviatsiya" agentlikning devonxonasi orqali arizani qabul qilish – "O'zaviatsiya" agentligi direktori imzosini qo'yish uchun arizani berish – "O'zaviatsiya" agentlikning HKUYaB arizani berish – "Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizomi"ga (O'zR AQ-30) muvofiq arizani qo'rib chikish – arizachiga sertifikatini berishni yoki berishni rad etish to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish.

4.5. Rad etish asoslari

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik sertifikatini berishni rad etilish asoslari quyidagi holatlarda bo'lishi mumkin:

- agar arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar Nizom talablariga javob bermasa yoki noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlar mavjud bo'lsa yoki zarur bo'lgan xujjatlarning butun to'plami arizaga ilova qilinmagan bo'lsa;
- agar Arizachi ruxsat etuvchi talablar va shartlarga muvofiq bo'lmasa;
- agar havo kemasining uchishga yaroqlilik holatini tekshirishda amaldagi fuqaro aviatsiyasi talablarining jiddiy buzishlar aniqlansa.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifatning parametrlari

Taalluqli emas.

Xizmatdan foydalanuvchilarining keng doirasi uchun fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik sertifikatini berish bo'yicha xizmat ommaviy hisoblanmaydi (ma'lumot uchun: bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida har yil havo kemalariga 72 ta Sertifikat beriladi).

5.2. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmatdan shikoyat qilish

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xizmatdan foydalanuvchi Sertifikatini berishni rad etilish to'g'risidagi xabarnomasi, shuningdek «O'zaviasiya» Agentlikning mansabdor shaxsining xatti-harakatlari (xarakatsizligi) yuzasidan qo'ydagilar orqali shikoyat qilishi mumkin.

- shaxsiy murojaat;
- yozma ravishda;
- elektron pochta.

Davlat xizmatini ko'rsatish sxemasi
(Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish)

